

## PEDAGOGNING KASBIY RIVOJLANISHIDA AKMEALOGIK YONDASHUVNING O'RNI

*Nazarova Nigora Ravshanovna*

*Xalqaro innovatsion universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada har bir pedagogka lozim bo'lgan kasbiy xususiyatlar, ularni rivojlantirish yo'llari masalalariga to'xtalib o'tilgan. Bundan tashqari pedagogning kasbiy rivojlanishi va shakllanishida ijodkorlikning o'rni, pedagoglik mahorati ,hayotiy –faoliyatida o'z-o'zini namoyon qilaolish qobiliyati akmealogik yondashuv asosida alohida tizimlashgan shaklda ko'rib chiqilgan va yoritilgan.*

**Kalit so'zlar .** *Akmealogiya, pedagogik mahorat , pedagogik qobiliyat. kreativlik, kognitiv tizim, ekspessivlik, motivatsia, kasbiy rivojlanish, kognitiv dissonans.*

Pedagogning kasbiy rivojlanishida ,uning shaxs sifatleri, qobiliyatlari, kasbiy bilim va ko'nikmalarining o'sishi, shakllanishi, pedagogik jarayonda nazariy bilimlarini amaliy tadbiiq etaolishi ta'kidlab o'tiladi. Biroq asosiy omil esa-uning pedagoglik faoliyatida o'z imkoniyatlarini namoyon qilishiga olib keluvchi o'z ichki olami va uni faol tarzda o'zgartira olishi qaraladi.

Kasbiy rivojlanish pedagogning ijodkorligi hamda qobiliyatlarining aks ettirilishi bilan ham bog'liqdir. Akmealogik qobiliyatlar- o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini namoyon etish kabilar pedagog hayotiy faoliyati jarayonida eng muhim omillardir. Akmealogik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarda pedagogik ijodkorlikni shakllantirish modelini ishlab chiqishni talab etadi va bu modelning quyidagi tarkibiy qismlarini keltirib o'tamiz.

Bu qismlar bir-biriga o'zaro bog'langan. 1) motivatsion-qadriyatli, 2) kognitiv, 3) faoliyatli, 4) kreativ kabi qismlardir.

Motivatsion model pedagogning bilishga doir va kasbiy motivatsiyasini o'zaro uyg'unlashuvi bilan harakterlanadi. Bundan tashqari pedagoglarning

unumdor faoliyatga intilishlari ya'ni mashg'ulotlar jarayonida kam quvvat sarflab ko'proq ma'lumotlar berishga intilishlari, kasbiy faoliyatga oid jarayonlarda faol ishtirok etishlari va albatta har bir pedagogda o'z-o'zini nomoyon etishga bo'lgan ishtiyoq bo'lishi zarur hisoblanadi.

Kognitiv- bu akmealogik yondayuv modelining tarkibiy qismidir. Pedagoglar kasbiy faoliyatida bu modelning o'rni qanday? Biz bilamizki, Kognitiv tizim— (lotincha: *cognitio* „idrok, tasavvur qilish, ishning tahlili“) — shaxsning xarakter, tarbiya, kuzatish va atrofdagi dunyoni aks ettirish natijasida ongda rivojlangan bilimlari tizimidir. Demak bu tizimda pedagog , maqsadlar qo'yadi va ma'lum bir vaziyatda qanday harakat qilish kerakligi haqida qarorlar qabul qiladi, kognitiv dissonansdan qochishga harakat qiladi. Kognitiv dissonans haqida ham qisqacha to'z talib o'tsak. Kognitiv dissonans (lotincha: *cognitio* "bilim" va *dissonantia* "nomutanosiblik", "tartibsizlik", "uyg'unlikning yo'qligi") - shaxsning ongida qarama-qarshi tushunchalar: g'oyalar, e'tiqodlar, qadriyatlar yoki hissiy reaksiyalar to'qnashumvi natijasida yuzaga kelgan ruhiy noqulaylik holati. Bu kasbiy rivojlanish uchun juda muhimdir. Kognitiv tizimning asosi — fikrlash ong, xotira va nutqning o'zaro ta'siridir.

Bilasizmi birgina shu modelning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari mavjud . bu xususiyatlar pedagogning faoliyati jarayonida kata rol o'ynaydi. Ekspessivlik, samaradorlik, algoritimlik, moslashuvchanlik va hazm qilish qobiliyati yani tizim o'rganish natijasida assimilatsiya (o'zlashtirish) qilinishidir.

Pedagog kasb sohasiga oid axborotlar bilan uzluksiz ravishda tanishib boradi bu bilimlar darajasini, sifatini oshirishga xizmat qiladi. O'z ishiga ma'suliyat bilan yondoshishi, fikrlarning o'ziga xosligi , kasbiy madaniyat kabi tushunchalar esa biz yuqorida ta'kidlagan kognitivlik modelini boyitishga xizmat qiladi.

Ta'lim –tarbiya jarayonining oqilona tashkil etilishi pedagogning kasbiy mahoratiga bog'lik hisoblanadi . Akmealogik yondashuv asosida pedagogning kasbiy rivojlanishi va ijodkorligini shakllantirishda yaratilgan modelning bir

qismi bu “faoliyatli” modeldir . Bejizga biz bu faoliyatlilikni mahorat bilan bog’lamadik. Negaki har bir pedagog kasbiy ko’nikma va malakalarga ega bo’lishi, mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanaolishi, ijodiy rivojlanish istiqbollarini aniqlayolishi, ta’lim – tarbiya jarayonida qulay metodlarni tanlab olishi va bu jarayonni oqilona rejalashtirishi lozimdir. Shu kabi ijodiy vazifalarni hal etishda shaxsiy va kasbiy munosabatlarni barqarorlashtirish masalasi ham asosiy omildir.

Kreativlik pedagogning an’anaviy fikrlashdan farqli ravishda ta’lim – tarbiya jarayonining samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi yangidan yangi g’oyalarni yaratish, shuningdek pedagogik muammolarni ijobiy hal etishga bo’lgan tayyorgarlikni tavsiflovchi qobiliyatdir. Ijodiy fikrlash , tadqiqotchilik faoliyatiga qobiliyatlilik, yangilik yaratishga intiluvchanlik shu kabi xususiyatlar akmealogik yondashuv asosida pedagogik ijodkorlikni shakllantirish modelining kreativ tarkibiy qismni aks etadi. Bu akmealogik yondashuvda asosiy va markaziy sifatlardir.

Hech bir kasb pedagoglik kasbidek ma’suliyatli va sharaflil bo’lmasa kerak. Chunki butun bir jamiyatning kelajagi ular ta’lim- tarbiya berayotgan bolalarga bog’liqdir. Shu masalalarni hisobga olgan holda pedagog hech qachon izlanishdan, o’z ustida ishlashdan, rivojlanishdan to’xtamasligi kerak. Bunday sifatlilar pedagogning kasbiy shakllanishidagi asosiy omillardir. Biz yuqorida mana shu shakllanishda bir tizim yaratilganini ko’rib chiqdik. Bu tizimlar esa motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli va kreativ kabi qismlardan tashkil topgan. Pedagoglar kasbiy –faoliyatida muhim bo’lgan jihatlarni shu qismlarda ko’rishingiz mumkin. Akmealogik yondashuvning modeli hisoblangan bu jihatlilar pedagogning ijodkorligini nomoyon qiladi. Pedagog qachonki shu tizimlarni o’zida mujassamlashtiraolsa albatta akmeshaxs bo’lib takomillashib boradi va o’zi kabi yetuk shaxslarni jamiyatga yetqazib beraoladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.**

1. Abdulxanova I.A, Anisimov O.S, Derkach. A.A. “Akmeologiya” Darslik (elektron) RAGS 2004

2. Tillayeva S.N “Akmeologiya asoslari” tafakkur bo‘‘stoni 2014
3. Akmeologiya. Darslik. A.A.Derkach taxriri ostida M., 2002
4. Akmeologiya. Xrestomatii „Filosofiya va akmeologiya“ M., 2004
5. Kuzmina N.V. Predmet akmeologii M.: SP №5,2002
6. S Xozyainov G I. Osnovi akmeologii M., 2002
7. Azizxodjayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. - T..
8. 2003. 9. WWW.ZIYO.UZ